



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 5 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 5

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-5>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslovovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Artikov Dilmurod Raxmatillayevich	
MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISH PRINSIPLARINING YURIDIK TAVSIFI.....	5
2. Sayfullaeva Venera Nimatjonovna	
AXBOROT XAVFSIZLIGI SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT HUQUQIY KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI.....	14
3. Бойтураев Дилшод Маматкарим угли	
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ РЕОРГАНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВ С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	26
4. Hazratqulov Zahridin Sobirjanovich	
KREDIT SEKTORIDA QONUN BUZILISHLARI HOLATLARIGA QARSHI KURASHNI MUVOFIQLASHTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING NAZARIY-HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI.....	40
5. Khamidov Nurmukhammad Orif ugli, Najimova Jamola Davron qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE FUTURE OF CRIMINAL LIABILITY: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS.....	50
6. Hojiyev Nosirjon Komilovich	
GIYOHVANDLIK VOSITALARINI, ULARNING ANALOGLARINI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI ISTE’MOL QILISHGA JALB ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK: XORIJIY TAJRIBA.....	59
7. Qo’chqarov Jaloliddin Nurilla o’g’li	
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING AHAMIYATI.....	67
8. Утаев Хусниддин Хуррамович	
РАҚАМЛИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИКНИНГ ОБЪЕКТИВ БЕЛГИЛАРИНИ ЖИНОИЙ ҲУҚУҚИЙ БАҲОЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	74
9. Нодиров Музаффар Ахмадович, Хайдарова Шохида Ахрор кизи	
ОЦЕНИВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОКУРОРОВ.....	81
10. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
KOMPYUTER AXBOROTIDAN QONUNGA XILOF RAVISHDA FOYDALANISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR.....	93
11. Хамдамова Фируза Уразалиевна	
ПРАВО РЕБЁНКА НА ДОСТУП К ИНФОРМАЦИИ И ЗАЩИТУ ОТ ВРЕДОНОСНОГО КОНТЕНТА.....	100
12. Султонов Абдулла Тоштемир ўғли	
ФИШИНГ ВА ОНЛАЙН ФИРИБГАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ СОҲАСИДАГИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	108



Qo‘chqarov Jaloliddin Nurilla o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
E-mail: jaloliddinkuchkarov97@gmail.com

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING AHAMIYATI

For citation: Kuchkarov Jaloliddin Nurilla ugli. THE ORIGIN OF CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATING OCCUPATIONAL SAFETY RULES AND ITS SIGNIFICANCE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235202>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqishi, huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda mehnatni muhofaza qilish institutining tarixiy shakllanishi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun hamda Jinoyat kodeksining 257-moddasi bilan bog‘liq normalar yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar statistikasi asosida mehnat xavfsizligini ta’minlash, ish beruvchilar mas’uliyatini kuchaytirish va jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mehnatni muhofaza qilish, jinoiy javobgarlik, mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, ish beruvchi majburiyati, Jinoyat kodeksi, xavfsiz mehnat sharoiti.

Кучкаров Жалолиддин Нурилла угли,

Докторант Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: jaloliddinkuchkarov97@gmail.com

ВОЗНИКНОВЕНИЕ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ ПРАВИЛ ОХРАНЫ ТРУДА И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются происхождение, правовая сущность и практическое значение уголовной ответственности за нарушение правил охраны труда. Рассматриваются историческое формирование института охраны труда, нормы Конституции Республики Узбекистан, Трудового кодекса, Закона «Об охране труда», а также статьи 257 Уголовного кодекса. На основе статистики несчастных случаев на производстве обосновывается необходимость обеспечения безопасности труда, усиления ответственности работодателей и совершенствования уголовно-правовых мер.

Ключевые слова: охрана труда, уголовная ответственность, безопасность труда, несчастный случай на производстве, обязанность работодателя, Уголовный кодекс, безопасные условия труда.

Kuchkarov Jaloliddin Nurilla ugli,
Doctoral Student at Tashkent State University of Law
E-mail: jaloliddinkuchkarov97@gmail.com

THE ORIGIN OF CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATING OCCUPATIONAL SAFETY RULES AND ITS SIGNIFICANCE

ANNOTATION

This article analyzes the origin, legal nature, and practical significance of criminal liability for violation of occupational safety rules. It examines the historical development of the occupational safety institution, relevant provisions of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Labour Code, the Law “On Occupational Safety,” and Article 257 of the Criminal Code. Based on workplace accident statistics, the article substantiates the need to ensure occupational safety, strengthen employers’ responsibility, and improve criminal law measures. **Keywords:** occupational safety, criminal liability, labour safety, workplace accident, employer’s obligation, Criminal Code, safe working conditions.

Mehnatni muhofaza qilish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydigan, inson salomatligi va xavfsizligini himoya qiladigan muhim huquqiy institutlardan biridir. Ushbu institut mehnat faoliyatida qatnashayotgan shaxslarning hayoti, sog’lig’i va ish qobiliyatini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini o’z ichiga oladi. Statistik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo’lsak, 2026-yilning 1-choragi davomida O’zbekistonda mehnat faoliyati bilan bog’liq jami 198 ta baxtsiz hodisa sodir bo’lgan. Ushbu holatlarning 9 tasi guruhli ko’rinishda yuz bergan bo’lsa, 139 tasi og’ir oqibatli hodisalarni tashkil etgan. Shuningdek, 49 ta holat o’lim bilan tugaganligi qayd etilgan. Mazkur baxtsiz hodisalar oqibatida jami 223 nafar shaxs jabrlangan bo’lib, ulardan 146 nafari og’ir jarohat olgan, 15 nafari yengil tan jarohati olgan hamda 62 nafari vafot etgan. Ushbu statistik ma’lumotlar ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish darajasi hali ham yetarli emasligini ko’rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko’p baxtsiz hodisalar Toshkent shahrida kuzatilgan bo’lib, jami 44 ta holat qayd etilgan. Keyingi o’rinlarda Surxondaryo viloyati — 36 ta, Toshkent viloyati — 29 ta va Navoiy viloyati — 18 ta holat bilan ajralib turadi. Shuningdek, Buxoro viloyatida 16 ta, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida 13 tadan, Qoraqalpog’iston Respublikasi, Farg’ona hamda Qashqadaryo viloyatlarida 10 tadan baxtsiz hodisa sodir bo’lgan. Andijon viloyatida 15 ta, Namangan viloyatida 7 ta, Xorazm va Jizzax viloyatlarida esa 5 tadan holat qayd etilgan. Mazkur statistik ko’rsatkichlar ishlab chiqarish hajmi yuqori bo’lgan hududlarda mehnat xavfsizligi bilan bog’liq muammolar ko’proq uchrayotganligini anglatadi.

Sohalar kesimida esa eng ko’p baxtsiz hodisalar sanoat va qurilish tarmoqlariga to’g’ri kelmoqda. Jumladan, sanoat sohasida 71 ta, qurilish sohasida 54 ta baxtsiz hodisa sodir bo’lgan. Bundan tashqari, qishloq va suv xo’jaligida 9 ta, transport sohasida 8 ta, savdo va xizmat ko’rsatish tarmog’ida 8 ta, ta’lim tizimida 6 ta hamda sog’liqni saqlash sohasida 4 ta holat qayd etilgan. Ayniqsa, qurilish va sanoat tarmoqlaridagi yuqori ko’rsatkichlar ushbu yo’nalishlarda xavf manbalari ko’pligi, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi yoki ishlab chiqarish ustidan nazoratning sustligi bilan izohlanadi.[1]

Ushbu statistik ma’lumotlar mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog’liq huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligini ko’rsatadi. Chunki bunday qoidabuzarliklar inson hayoti va sog’lig’iga jiddiy zarar yetkazib, ayrim hollarda o’lim oqibatlariga olib kelmoqda. Shu sababli mehnatni muhofaza qilish sohasida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ish beruvchilarning mas’uliyatini oshirish hamda xodimlarning mehnat xavfsizligi bo’yicha huquqiy bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi nafaqat texnika xavfsizligi bilan bog’liq, balki psixologik salomatlik, mehnat gigiyenasi, kasb kasalliklarining oldini olish, huquqiy maslahatlar berish, majburiy mehnatdan himoyalash kabi keng ko’lamli yo’nalishlarni o’z ichiga oladi. O’zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonunida mehnatni muhofaza qilish quyidagicha tariflanadi: “Mehnatni muhofaza qilish – bu insonning mehnat faoliyatidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta’minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlaridan iborat tizimdir”[2]. Ushbu institutning shakllanishi tarixiy jihatdan uzoq evolyutsiyani bosib o’tgan. Dastlab, mehnatni muhofaza qilishga oid tushunchalar sanoat inqilobi boshlangan 18–19-asrlarda

paydo bo'lgan. Ingliz huquqida 1833-yilgi "Factory Act" (Zavodlar to'g'risidagi qonun) bolalar mehnatini tartibga solgan va mehnatning xavfsizligini nazarda tutgan ilk normativ hujjat sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Keyinchalik boshqa G'arb davlatlarida ham shunga o'xshash qonunlar ishlab chiqildi. Xususan, Germaniyada Bismark davrida mehnatni ijtimoiy himoya qilishga doir muhim qonunlar qabul qilindi. Xalqaro miqyosda mehnatni muhofaza qilishga oid normativ huquqiy asoslarni ishlab chiqishda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) alohida o'rin egallaydi.

1919-yilda tashkil topgan XMT 100 dan ortiq konvensiyalar qabul qilgan bo'lib, ular orasida 155-sonli "Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risida"gi (1981-yil), 161-sonli "Ish joylarida sog'liqni saqlash xizmati to'g'risida"gi (1985-yil) hamda 187-sonli "Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida"gi (2006-yil) konvensiyalar aynan xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga oid global standartlarni belgilaydi.[3] O'zbekiston Respublikasida ham mazkur konvensiyalarning tamoyillari milliy qonunchilikda o'z aksini topgan. Xususan, 30.04.2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida quyidagicha norma mavjud: Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Ushbu norma inson salomatligini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida mehnatni muhofaza qilishga oid normalar alohida boblar shaklida bayon etilgan. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik institutining shakllanishi va rivojlanishi, avvalo, inson hayoti hamda sog'lig'ini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish bilan chambarchas bog'liqdir. Sanoatlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi va texnik xavf manbalarining ko'payishi natijasida xodimlarning hayoti hamda sog'lig'iga zarar yetkazuvchi holatlar soni ortib borgan. Shu sababli davlat tomonidan mehnat xavfsizligini ta'minlash masalasi nafaqat mehnat huquqi, balki jinoyat huquqining ham muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Bugungi kunda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi xodimlarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ham xodimlarning xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga ega bo'lish huquqi alohida mustahkamlangan. Jumladan, kodeksning 2-moddasida davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida xodimlarning adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqini ta'minlash belgilangan. Mazkur norma mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Mehnat kodeksining 21-moddasida xodimning xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlariga ega bo'lish huquqi kafolatlangan. Ushbu qoidalar mehnatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarning huquqiy asosini tashkil etadi.

Mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilish nafaqat ish beruvchining majburiyati, balki xodimning ham muhim vazifasi hisoblanadi. Mehnat kodeksining 22-moddasiga ko'ra, xodim mehnatni muhofaza qilish talablariga, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga amal qilishi shart. Bu norma ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni ta'minlash ikki tomonlama majburiyat ekanligini anglatadi. Chunki amaliyotda ayrim baxtsiz hodisalar xodimlarning ehtiyotsizligi yoki belgilangan xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi oqibatida ham yuzaga keladi. Shu bilan birga, Mehnat kodeksi ish beruvchiga yanada kengroq majburiyatlarni yuklaydi. Xususan, kodeksning 25-moddasida ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish normativ talablariga mos mehnat sharoitlarini yaratishi, xodimlarni zarur texnik vositalar bilan ta'minlashi hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish choralari ko'rish shartligi belgilangan. Bundan tashqari, ish beruvchining xodimlarni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasb kasalliklaridan majburiy

sug'urtalashi ham qonunchilikda mustahkamlangan. Mazkur talablar mehnat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini shakllantiradi.[4]

Shuningdek, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (1993-yil 6-mayda qabul qilingan, 2016-yil 22-sentabrda yangi tahriri tasdiqlangan) ushbu institutning mustaqil asosiy manbasi hisoblanadi. Qonunning 3-moddasida uning amal qilish sohasi, 5-moddasida esa mehnatni muhofaza qilishning davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan. 7-moddada esa xavfli va zararli sharoitlarda ishlovchi xodimlar uchun kompensatsiyalar va imtiyozlar ko'rsatilgan. Milliy qonunchilikka ko'ra, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Davlat mehnat inspeksiyasi amalga oshiradi. Mehnat kodeksining 535-moddasiga asosan, inspeksiya ish beruvchilar tomonidan qonunlarga rioya etilishini tekshiradi, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha nazorat yuritadi, huquqbuzarliklarga nisbatan ma'muriy choralar ko'radi. Shuningdek, jinoyat qonunchiligi orqali ham mehnatni muhofaza qilish institutining huquqiy himoyasi kuchaytirilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 257-moddasiga ko'ra, Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar jamiyatda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Mazkur jinoyatning asosiy obyekti korxona, muassasa va tashkilotlarda xodimlarning xavfsiz mehnat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu jinoyat natijasida inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishi mumkinligi sababli fuqarolarning hayoti hamda sog'lig'i qo'shimcha obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Amaliyotda jabrlanuvchi sifatida nafaqat doimiy ishlovchi xodimlar, balki vaqtinchalik yoki mavsumiy asosda faoliyat yuritayotgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan qilmishning obyektiv tomoni texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilishga oid boshqa qoidalarining buzilishida ifodalanadi. Ushbu qoidabuzarlik oqibatida shaxsga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishi jinoyat tarkibining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur norma blanket dispozitsiyaga ega bo'lib, jinoyat mavjudligini aniqlashda mehnatni muhofaza qilishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilish talab etiladi. Ya'ni, qaysi xavfsizlik qoidasi buzilgani va aynan qaysi talab bajarilmagani har bir holatda alohida aniqlanishi lozim.

Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi mehnat faoliyati jarayonida xodimlarning hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena hamda profilaktik chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Shu sababli ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash faqatgina umumiy talablarni belgilash bilan cheklanib qolmaydi, balki aniq mas'ul shaxslarning javobgarligini ham nazarda tutadi. Korxona rahbarlari, texnika xavfsizligi bo'yicha muhandislar, uchastka boshliqlari yoki boshqa vakolatli shaxslar zimmasiga mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta'minlash majburiyati yuklatiladi. Ayniqsa, xavf darajasi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarida ichki lokal hujjatlar va texnika xavfsizligi yo'riqnomalarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jinoyat harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etilishi mumkin. Masalan, xavfsizlik talablarini qasddan buzish faol harakat sifatida namoyon bo'lsa, xavfsizlik vositalarini o'rnatmaslik, nazoratni amalga oshirmaslik yoki xodimlarni zarur himoya vositalari bilan ta'minlamaslik harakatsizlik shaklidagi qilmish hisoblanadi. Jinoyat ijtimoiy xavfli oqibat, ya'ni tan jarohati yoki boshqa og'ir oqibat yuzaga kelgan paytdan boshlab tugallangan deb topiladi. Shu bilan birga, har bir jinoyat ishida qoidabuzarlik bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agar aynan xavfsizlik qoidalarining buzilishi oqibatida zarar yuzaga kelganligi isbotlansa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan mazkur jinoyat ko'pincha ehtiyotsizlik shaklida sodir etiladi. Aybdor shaxs xavfli oqibatlar yuz berishi mumkinligini oldindan ko'ra turib, bunday oqibatlar kelib chiqmaydi deb asossiz ravishda ishonishi yoki ularni oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lsa-da, yetarlicha e'tibor bermasligi mumkin. Shu sababli jinoyat tarkibida o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi ehtiyotsizlik asosiy o'rin egallaydi. Biroq ayrim holatlarda xavfsizlik qoidalarini bila turib buzish holatlari ham uchraydi.

Jinoyatning subyekti esa 16 yoshga to'lgan hamda texnika xavfsizligi yoki mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta'minlash majburiyati yuklatilgan shaxs hisoblanadi. Bunday shaxslar jumlasiga korxona rahbarlari, muhandis-texnik xodimlar, ustalar yoki ishlab chiqarish jarayoniga mas'ul boshqa mansabdor shaxslar kiradi. Agar mazkur qoidalar buzilishi natijasida odam o'lishi yoki boshqa og'ir oqibatlar yuzaga kelsa, javobgarlik yanada og'irlashadi. Bir necha shaxsning jarohatlanishi, ko'p miqdordagi moddiy zarar yoki inson o'limi kabi oqibatlar ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur normalarning samarali qo'llanilishi xodimlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, ishlab chiqarishda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish hamda baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 155-sonli Konvensiyasida xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlash davlat zimmasidagi asosiy majburiyat sifatida belgilanadi.[5] Mazkur tamoyillar O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, ular milliy qonunchilikda mustahkamlab borilishi lozim. Shu jihatdan, dissertatsiya mavzusi xalqaro tajriba va mahalliy qonunchilikni solishtirma-huquqiy tahlil qilish orqali tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

Yana bir zaruriy omil — jinoyat-huquqiy javobgarlikning boshqa javobgarlik turlaridan (fuqarolik, ma'muriy) farqlanishini aniqlash, huquqiy me'yorlarning o'zaro uyg'unligini tekshirishdir. Ko'plab hollarda texnik xavfsizlik yoki sanitariya qoidalariga amal qilmaslik ma'muriy javobgarlik bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa jinoyatning oldini olishdagi profilaktik funktsiyaning to'liq namoyon bo'lmashiga olib keladi.[6]

Amaliy jihatdan qaralganda, mehnat muhofazasi faqat ish joyidagi xavfsizlik vositalari bilan cheklanib qolmay, balki ishlab chiqaruvchilarning, yetkazib beruvchilarning, uskunalarini loyihalovchilarning, davlat organlarining va ishchilarning o'zaro hamkorlikdagi harakatlarini talab etadi. Masalan, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlik tizimlarini joriy qilishda ishlab chiqaruvchining muvofiqlik sertifikatini, xavfli moddalarga doir etiketkalash, xavfsizlik texnikasi bo'yicha treninglar va kasbiy reabilitatsiya markazlari muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston mehnat qonunchiligida 2011-yildan buyon "Tashkilotlar faoliyatini to'xtatib turish tartibi" ham amalda bo'lib, bu xavfli sharoitda faoliyat yuritayotgan ish beruvchilarni vaqtincha to'xtatish orqali inson salomatligini saqlashni ko'zda tutadi. Bu holat favqulodda holatlarning oldini olishda, profilaktika choralarini kuchaytirishda muhim mexanizmdir[7]. Mehnatni muhofaza qilish — bu ishchilarning mehnat faoliyatini xavfsiz va sog'lom sharoitda olib borishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy va texnik chora-tadbirlar tizimidir. Ushbu tushuncha zamonaviy mehnat huquqining ajralmas qismi bo'lib, inson salomatligi, xavfsizligi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Nazariy jihatdan mehnatni muhofaza qilish tushunchasi sotsiologik, huquqiy va iqtisodiy yondashuvlar orqali izohlanadi. Sotsiologik yondashuvga ko'ra, bu tizim jamiyatda ijtimoiy tenglik va ijtimoiy himoyani ta'minlaydi. Huquqiy yondashuv esa ushbu tizimni davlat tomonidan mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish va ish beruvchilarning majburiyatlarini belgilash vositasi sifatida ko'radi.

Mehnatni muhofaza qilishning konseptual rivojlanishi asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida industrial jamiyatlar shakllanishi bilan bog'liq. Rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarishning kengayishi bilan birga, ishchilar salomatligi va xavfsizligi masalalari dolzarb tus ola boshladi. Dastlab bu sohada minimal texnik talablar shakllantirildi, biroq keyinchalik bu talablar davlat tomonidan huquqiy tartibga solina boshlandi. Hozirgi davrda mehnatni muhofaza qilish tizimi xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) konvensiyalari va tavsiyalari asosida shakllanmoqda. XMT tomonidan qabul qilingan 155-sonli konvensiya (1981-yil) barcha a'zo davlatlardan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha milliy siyosat yuritishni talab qiladi.[8] Bu konvensiyada xavf-xatarning oldini olish, ishchilarni o'qitish, mehnat sharoitlarini muntazam monitoring qilish kabi tamoyillar belgilangan. Shu bois, mehnatni muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyilining ko'rinishi, balki davlatlarning konstitutsiyaviy va xalqaro majburiyatlarining tarkibiy qismidir. Bu esa uni huquqiy nuqtai nazardan alohida ahamiyatli tizim sifatida o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish tizimi o'ziga xos tarixiy va siyosiy jarayonlar orqali shakllandi. Mustaqillikdan avval bu tizim SSSR qonunchiligiga asoslangan bo'lib, asosiy e'tibor ishlab chiqarish mehnatini nazorat qilishga qaratilgan edi. Ammo 1991-yildan keyin mehnatni muhofaza qilish sohasida mustaqil milliy yondashuvlar shakllana boshladi.

Davlat mehnat inspeksiyasi, kasaba uyushmalari va boshqa tegishli idoralar orqali mehnatni muhofaza qilishni amalga oshirish tizimi shakllantirildi. 1999-yilda esa "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, mehnat sharoitlarining sanitariya-epidemiologik talablar asosida baholanishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Keyingi yillarda bu tizim doimiy rivojlanib, xalqaro mehnat standartlariga yaqinlashmoqda. Xususan, O'zbekiston XMTning 14 ta asosiy konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lib, ulardan bir nechtasi mehnatni muhofaza qilishga bevosita daxldor (XMT, 2023). O'zbekiston Respublikasi tomonidan Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikda olib borilgan islohotlar natijasida mehnat xavfsizligi va salomatlikni muhofaza qilishga oid xalqaro normalar milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda. Bu borada XMTning 81, 129, va 155-sonli konvensiyalari asosiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunini qabul qilish rejaları xalqaro tajriba asosida olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. 2023-yilda yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining qabul qilinishi bilan mehnat muhofazasi bo'yicha alohida boblar joriy etildi, bu esa xalqaro standartlar bilan uyg'unlikda ekanligidan dalolat beradi.

Xalqaro tashkilotlarning texnik ko'magida amalga oshirilgan "Ish joylarida xavfsizlik va salomatlik" loyihasi mehnatni muhofaza qilish tizimini monitoring qilish va baholashning samarali mexanizmlarini joriy etishga xizmat qildi. Bu loyihalar orqali mehnat muhofazasi madaniyati jamiyatda keng targ'ib qilinmoqda. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida, mehnat xavfsizligini ta'minlash faqat yuridik majburiyat emas, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish tizimining institutsional asoslari davlat boshqaruvi organlari, kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik orqali rivojlanmoqda. 2019-yilda Mehnat vazirligi qoshida "Mehnatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot instituti" tashkil etildi va bu institut sohani chuqur tahlil qilish, normativ hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, jinoyat qonunchiligi orqali ham mehnatni muhofaza qilish institutining huquqiy himoyasi kuchaytirilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 257-moddasiga ko'ra, Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar jamiyatda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Mazkur jinoyatning asosiy obyekti korxona, muassasa va tashkilotlarda xodimlarning xavfsiz mehnat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu jinoyat natijasida inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishi mumkinligi sababli fuqarolarning hayoti hamda sog'lig'i qo'shimcha obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Amaliyotda jabrlanuvchi sifatida nafaqat doimiy ishlovchi xodimlar, balki vaqtinchalik yoki mavsumiy asosda faoliyat yuritayotgan shaxslar ham qatnashishi mumkin.[9]

Jinoyat kodeksining 257-moddasida nazarda tutilgan qilmishning obyektiv tomoni texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilishga oid boshqa qoidalarining buzilishida ifodalanadi. Ushbu qoidabuzarlik oqibatida shaxsga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilishi jinoyat tarkibining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur norma blanket dispozitsiyaga ega bo'lib, jinoyat mavjudligini aniqlashda mehnatni muhofaza qilishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilish talab etiladi. Ya'ni, qaysi xavfsizlik qoidasi buzilgani va aynan qaysi talab bajarilmagani har bir holatda alohida aniqlanishi lozim.[10]

Bundan tashqari, 2020-yilda "Ish joylarida xavfsizlik va salomatlik bo'yicha Davlat inspeksiyasi" tashkil etildi. Ushbu tuzilma mehnat muhofazasi bo'yicha davlat nazorati funksiyalarini bajaradi va xavfsizlik talablariga rioya qilinmaganda jinoiy javobgarlik choralarini ko'rish vakolatiga ega. Mehnat muhofazasini ta'minlashdagi institutsional yondashuvlar faqatgina davlat nazorati bilan cheklanmay, balki ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv xalqaro amaliyotga muvofiq tarzda shakllanmoqda. Mehnatni muhofaza qilishga oid nazariy yondashuvlar uchta asosiy konsepsiyaga tayanadi: **Huquqiy**

yondashuv – bu yondashuvga ko‘ra, xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo‘lish insonning ajralmas huquqlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Bu huquq davlat tomonidan qonunchilik orqali mustahkamlanadi, ish beruvchilarga esa majburiyat sifatida yuklatiladi. Masalan, O‘zbekistonning Mehnat kodeksida xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik jinoyat va ma‘muriy javobgarlikka sabab bo‘lishi qat’iy belgilangan (Mehnat kodeksi, 2023). **Ijtimoiy yondashuv** – bu modelda mehnatni muhofaza qilish ijtimoiy tenglik, adolat va xavfsiz jamiyat tamoyillari bilan bog‘liq. Ishchilarning sog‘lig‘ini asrash, ularning salomatligini ta‘minlash orqali ijtimoiy himoya va barqarorlik mustahkamlanadi. **Iqtisodiy yondashuv** – mehnat muhofazasi iqtisodiy samaradorlik, mahsuldorlik va barqaror ishlab chiqarishni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Jarohatlar, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari nafaqat inson salomatligiga, balki milliy iqtisodiyotga katta zarar yetkazadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, xavfsizlikni ta‘minlamaslik sababli ishlab chiqarishning 3–4 foizi yo‘qotiladi (WHO, 2020).

Bundan tashqari, mehnatni muhofaza qilish tizimi orqali davlat o‘zining fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajaradi. Bu tizim davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va huquq sohalarida uzviy integratsiyalashgan bo‘lib, u orqali ijtimoiy xavfsizlik kafolatlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mehnatni muhofaza qilish institutining shakllanishi tarixiy, huquqiy va xalqaro bosqichlarni bosib o‘tgan. Bugungi kunda ushbu institut Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, alohida qonunlar, idoraviy hujjatlar, xalqaro konvensiyalar va sud qarorlariga tayangan holda rivojlanmoqda. U inson hayotining daxlsizligi, ijtimoiy adolat, kasbiy xavfsizlik va barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumoti 2026. (Information of the Ministry of Poverty Reduction and Employment of the Republic of Uzbekistan, 2026);
2. "Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘RQ-410-son, 2016-yil 22-sentabr. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Labor Protection” (No. ORQ-410, September 22, 2016);
3. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) Konvensiyalari: 155, 161 va 187-sonlar. (Conventions of the International Labour Organization (ILO): Nos. 155, 161 and 187;
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 30.04.2023-yil. (Labor Code of the Republic of Uzbekistan (April 30, 2023) <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-7385748>;
5. International Labour Organization (ILO). (1981). Convention No. 155: Occupational Safety and Health Convention. Geneva;
6. Butler, J., & Ewing, M. (2020). Occupational Safety and Criminal Liability: Comparative Analysis. *Journal of Labour Law*, 45(2), 212–231;
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.01.2011-yildagi 1-son. “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 1 dated January 5, 2011 “On Approval of the Regulation on the Procedure for Suspension of Activities of Organizations for Violations of Labor Protection Legislation”;
8. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) Konvensiyalari: 155, 161 va 187-sonlar. ((Conventions of the International Labour Organization (ILO): Nos. 155, 161 and 187);
9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994-yil. (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan (September 22, 1994) <https://lex.uz/docs/-111453>;
10. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi (M.X.Rustambayev 5-tom. Maxsus qism. 2011). (Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan (M. Kh. Rustambayev, Vol. 5: Special Part, 2011).

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.